

KIYIM TAYYORLASH JARONIDAGI ASOSIY TEXNOLOGIK JARAYONLAR VA TALABLAR

Temirova Gulnoz Ibodovna

*Buxoro texnika universiteti, "Yengil sanoat muhandisligi va dizayn"
kafedrası dotsenti*

Muxammadova Zebiniso Olimovna

*Buxoro texnika universiteti, "Yengil sanoat muhandisligi va dizayn"
kafedrası I-bosgich tayanch doktoranti*

Yuldasheva Sitorabonu Ramazonovna

*Buxoro texnika universiteti, "Yengil sanoat muhandisligi va dizayn"
kafedrası II-bosgich magistri*

E-mail: gulnoz.temirova.72@mail.ru

Tel: +998914412772

Annotatsiya: Inson tanasini himoya qiluvchi har qanday kiyim gigiyenik va texnikaviy jihatdan uning nimaga mo'lallanganiga mos bo'lishi zarur. Ustki va qishgi kiyimlar issiq saqlaydigan, yengil va yozgi kiyimlar issiqlikka yuqori darajada qarshilik ko'rsatadigan, plash suv o'tkazmaydigan, ich kiyim esa havo va bug'ni yaxshi o'tkazadigan, nam shimadigan bo'lishi kerak. Texnologik qulay bo'lgan har qanday kiyim ma'lum daraja pishiq, chidamli bo'lishi, maksimal darajada yengil va mayin bo'lishi asosiy talablardan.

Kalit so'zlar: kiyim, gigiyenik, ergonomik, estetik, texnologiya, dizayn, mahsulot, konstruksiya, qatlam, avra, astar, isituvchi qatlam.

KIRISH

Hozirgi kunda bozor iqtisodiyoti sharoitida xususiy mulkchilikka keng yo'l berilishi natijasida kichik va o'rta yengil sanoat korxonalari, xususan tikuvchilik korxonalari rivojlanayotgani esa bu talabni yanada oshirib yubordi. Yengil sanoatdagi tikuvchilik korxonalari aholiga maishiy xizmat ko'rsatish xalq iste'mol mollari bilan ta'minlashning muhim tarmoqlari hisoblanadi. Ular mehnat unumini oshirish hisobiga tovarlar miqdorini ko'paytiribgina qolmay, balki modadagi, xushbichim, zamon talablariga javob beradigan kiyimlarga bo'lgan tez o'zgaruvchan talabni ham qondirishi kerak. Zamonaviy kiyimlarni talab darajasida ishlab chiqarish uchun har bir tikiladigan kiyimni dizayni, amaliy san'at ob'ekti sifatida, san'atning hamma qonuniyatlariga xos bo'lgan ijodiy jarayon sifatida ko'rib chiqadi.

Kiyim ma'lum talablarga javob berishi kerak. Bular gigiyenik, estetik va texnikaviy talablar. Ommaviy tarzda tikiladigan kiyimlar esa bundan tashqari tikish texnologiyasiga mos konstruksiyali va tejamli bo'lishi kerak [1-3].

Har qanday kiyim gigiyenik va texnikaviy jihatdan uning nimaga mo'lallanganiga mos bo'lishi zarur. Masalan, issiq saqlaydigan kiyim issiqlikka yuqori darajada qarshilik ko'rsatadigan, plash suv o'tkazmaydigan, ich kiyim va yozlik kiyim esa havo va bug'ni

yaxshi o'tkazadigan, nam shimadigan bo'lishi kerak. Har qanday kiyim ma'lum daraja pishiq, chidamli bo'lishi, maksimal darajada yengil va mayin bo'lishi lozim [4].

Kiyim tevarak atrofdagi muayyan iqlim sharoitida odamning mehnat qilishi, dam olishi, sport bilan shug'ullanishi uchun qulay bo'lishi kerak. Qulay kiyim deganda, odam badani atrofida havo tarkibi atmosferadagiga yaqin keladigan maqbul sun'iy iqlim hosil qila oladigan kiyim tushuniladi. Kiyim loyihalashda kiyim tagi bo'shlig'idagi havo almashib turishi, ya'ni odam badanidan chiqqan bug' va karbonat angidrid o'z vaqtida ko'tarilib ketishi zarurligi ham hisobga olinadi. Odam faqat o'pkasi bilan emas, balki terisi orqali ham nafas oladi. Bunda odam terisi tashqi muhitdagi kislorodni yutib, tashqariga karbonat angidrid chiqaradi. Natijada kiyim tagida ba'zan ko'pgina miqdorda karbonat angidrid to'planib qoladi. Karbonat angidrid va namlikni yo'qotib turish uchun kiyim tikilgan gazlama havo va bug'ni yaxshi o'tkazadigan bo'lishi kerak. Shuning uchun sintetik materiallardan tikilgan kiyimlarning old va ort bo'laklari, yengi kabi joylarida havo almashinadigan to'r yoki teshiklar bo'lishi zarur. Qo'sh qavat gazlamalardan tikilgan kiyimlar esa kengroq qilib bichiladi. Tashqi havo issiq bo'lganda, ish intensiv bajarilsa, tez yurilsa yoki yugurilsa, shuningdek haddan tashqari issiq kiyilsa, badan ortiqcha isib ketib, teri yuzasidan faqat bug' shaklidagina emas, balki ter shaklida ham namlik ajralib chiqadi. Bunday terni yo'qotib turish uchun kiyim materiali namni juda yaxshi shimadigan bo'lishi kerak. Bunga asosan ich kiyim loyihalashda katta e'tibor beriladi. Demak, kiyim tagidagi mikroiklim sharoiti qulayligini saqlab turish uchun ich kiyim tikiladigan gazlamalar tashqi issiqlikni kam o'tkazadigan bo'lishi bilan birga, quruq holda ham, nam holda ham havoni yaxshi o'tkazadigan, ya'ni badandan ajralayotgan karbonat angidrid bilan namlikni yo'qotib turadigan bo'lishi kerak. Bundan tashqari, ich kiyim materiali ko'proq nam tutib turadigan, ya'ni shimib olgan namlikni tashqi muhitga sekinlik bilan berib quriydigan bo'lishi kerak. Ich kiyimlar ko'proq zig'ir tola gazlamadan tikilishining sababi ham shunda, chunki bunday gazlamalarning gigroskopik (nam shimish) xususiyatlari juda yaxshi bo'ladi [4-5].

Havo harorati past paytlarda kiyim asosan muhofaza qilish vazifasini bajarib, badandan chiqqan issiqlikni tashqi muhitga kamroq o'tkazadi. Odam badani chiqarayotgan issiqlik bilan uning tashqi muhitga berayotgan issiqligi qiymatlari teng bo'lgandagina odam badanining harorati bir xilda saqlanishi mumkin. Qishki kiyim organizmning issiqlik sarflashini kamaytirib, odamning salomatligi va ish qobiliyatini saqlashga ko'maklashadi. Qishki kiyim uchun ishlatiladigan gazlamalar tajriba yo'li bilan aniqlanib tanlanadi [6-7].

Loyihalanayotgan kiyimning issiqlikka qarshiligi qancha bo'lishi kerak ekanini bilish uchun odam sarflaydigan energiya miqdorini, tashqi muhit haroratini, shamol tezligini va kiyimning havo o'tkazuvchanligini hisobga olish kerak. Ekspluatatsiya qilish sharoitiga mos kiyim tikish uchun quyidagi ko'rsatkichlarni bilish kerak:


- kiyim kiyib yuriladigan joydagi atmosfera havosining harorati va shamolning shu yerda eng ko'p bo'lib turadigan tezligi;
- kiyimni kiyishi mo'ljallangan odamning o'rtacha energiya sarflashi;

-odamning belgilangan sharoitda qancha vaqt uzluksiz bo'lishi.

Kiyim vaznining ham juda katta ahamiyati bor. Kiyim og'ir bo'lsa, u odamni tez charchatadi, yelkalarni og'ritib qo'yadi, kishining ish qobiliyatini kamaytirib yuboradi. Adabiyotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, erkaklarning qishki kiyimi (poyafzal, bosh kiyimi bilan birga) kamida 7975 g, ortig'i bilan 9742 g, yozgi kiyimi esa 2629-4373 g bo'ladi.

Kishi badanini atrof -muhiitning salbiy ta'siridan himoyalaydigan libos kiyim - kechak deb ataladi. Kiyimning gazlamasi, shakli, silueti, uslubi va bichimiga qarab kishining turmush tarzi, yashaydigan iqlimning sharoitini, uning qanday sinf va tabaqaga mansubligi, madaniy saviyasi, madaniy farovonligi to'g'risida fikr yuritish mumkin.

Kiyimga qo'yiladigan talablar ikki gruppaga **iste'molchilar** va **sanoat** talablariga bo'linadi.



1-rasm. Kiyimga qo'yiladigan talablar

Iste'molchi talablarga gigiyenik, estetik va ekspulatsion talablar kiradi [8].

Gigiyenik talablarga kiyim odamni issiqdan, sovuqdan, yomg'irdan, kimyoviy va mexanikaviy jarohatlashishdan himoya qilish, terining yaxshi nafas olishini va terlashini ta'minlashi kerak.

Estetik talablar deganda kiyimning modaga mosligi, yangi materiallarga tikilganligi, yangi bezak detallar ishlatilganligi, iste'molchilarning estetik didlarini qondirish tushuniladi.

Ekspulatsion talablar deganda kiyimning vazifasi va foydalanish sharoitlariga mosligi, qulayligi, chidamliligi, ishonchliligi, formasining barqarorligi tushuniladi.

Sanoat talablariga kiyimning texnik, iqtisodiy jihatdan maqsadga muvofiqligi ya'ni materiallarni ishlatish, kiyim tikishga sarflanadigan vaqtni kamaytirish kiradi.

XULOSA

Tashqi muhitning turli xildagi omilaridan inson tanasini himoya qiluvchi har qanday kiyim gigiyenik, estetik, texnik va ekspulatsion talablarga javob berishi kerak. Chunki inson tanasi tashqi muhitning yomon ta'sirlariga uchrab mehnat qilish qobiliyatini va

yashash davrini pasayishini oldini olishi zarur. Har qanday kiyim tayyorlash jarayonida maqsadiga qarab va uning nimaga mo'lallanganiga qarab texnologik mos bo'lishi zarur.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Темирова, Г. И. (2020). ПОВЫШЕНИЕ ЭФФЕКТИВНОСТИ ИСПОЛЬЗОВАНИЯ КОЛЛАГЕНСОДЕРЖАЩИХ МАТЕРИАЛОВ ПРИ ПРОИЗВОДСТВЕ КАЧЕСТВЕННЫХ И РЕСУРСОСБЕРЕГАЮЩИХ МЕХОВЫХ ИЗДЕЛИЙ. In Всероссийская конференция молодых исследователей с международным участием «Социально-гуманитарные проблемы образования и профессиональной самореализации»(Социальный инженер-2020) (pp. 152-158).
2. Сайитова, У. С., & Темирова, Г. И. (2017). Конструктивные приемы трикотажной формы и элементы формообразования одежды. Вопросы науки и образования, (2 (3)), 37-39.
3. Temirova, G. I., Tashpulatov, S. S., & Cherunova, I. V. (2018). PRODUCTION TECHNOLOGY FROM NATURAL POWER ON THE FULL-TERMOLOGICAL TECHNOLOGY. In The latest research in modern science: experience, traditions and innovations (pp. 44-48).
4. Temirova, G. I., & Tashpulatov, S. S. (2018). AN ANALYSIS OF ART DECORATION USED IN SEWING ITEMS. In The latest research in modern science: experience, traditions and innovations (pp. 41-44).
5. Темирова, Г. И., et al. "Перспективные направления использования коллагенсодержащих материалов при изготовлении изделий различного ассортимента." Научно-технический журнал Наманганского инженерно-технологического института 1 (2020): 63-67.
6. Темирова Г.И., Субхонова И.И., Кудратов Ш. 2022. СПОСОБЫ ИСПОЛЬЗОВАНИЯ МАТЕРИАЛОВ НА ОСНОВЕ КОЛЛАГЕНА В ПРОИЗВОДСТВЕ МЕХОВЫХ ИЗДЕЛИЙ. Международный междисциплинарный исследовательский журнал Galaxy . 10, 1 (январь 2022 г.), 426–430.
7. Ибодовна, Темирова Г. «Ресурсобережные способы соединения натурального меха с основной деталью». Журнал NX , том. 6, нет. 05, 2020, стр. 45-47.
8. Темирова, Г. И., & Абдуллаева, Г. Ш. ПОЛУЧЕНИЕ КОЛЛАГЕНСОДЕРЖАЩИХ МАТЕРИАЛОВ ПРИ ИЗГОТОВЛЕНИИ МЕХОВЫХ ИЗДЕЛИЙ. Международный научно-практический электронный журнал «МОЯ ПРОФЕССИОНАЛЬНАЯ КАРЬЕРА». Выпуск № 35 (том 1)(апрель, 2022). Дата выхода в свет: 30.04. 2022., 120.